

A. RAZZOQOV, SH. TASHMATOV,  
N. O'RMONOV

**IQTISODIY  
TA'LIMOTLAR  
TARIXI**

“IQTISOD-MOLIYA”

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**A. RAZZOQOV,  
SH. TASHMATOV,  
N. O'RMONOV**

# **IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining  
iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun  
darslik sifatida tavsiya etilgan

14233

№ 14233  
TASHKENT

**Toshkent**  
**«IQTISOD-MOLIYA»**  
**2007**

**65.04**  
**R18**

Taqrizchilar: iqtisod fanlari doktori, professor **A.U.Abduraximov**;  
iqtisod fanlari doktori, professor **Sh.Sh.Shodmonov**

Darslikda qadimdan to hozirgi davrgacha paydo bo'lgan iqtisodiy fikr, g'oya, qarash va ta'limotlarning mazmuni, mohiyati, ularning evolutsiyasi va bugungi kundagi ahamiyati tarixiy ketma-ketlik asosida yoritilgan. Avval hukmronlik qilgan sinfiylik, partiyaviylik tamoyillaridan holi holda, har bir ta'limotning mohiyatiga obyektiv baho berishga harakat qilingan. Ayniqsa, tanqid etib kelingan bozor iqtisodiyoti (kapitalistik munosabatlar) to'g'risidagi ta'limotlarga keng o'rin berilgan. Sharq, jumladan Markaziy Osiyodagi mutafakkirlarning g'oyalari birinchi marta ma'lum tartibda e'lon qilinmoqda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining erkin bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlari ko'rsatilgan. Har bir bobda qisqacha xulosalar, tayanch tushuncha, nazorat va muhokama uchun savollar berilgan. Darslik oliy o'quv yurti talabalari, aspirant, ilmiy xodimlar va iqtisodiyot tarixi bilan shug'ullanuvchilarga mo'ljallangan.

### **Razzoqov Abduxalil**

**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.** Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A. Razzoqov, Sh. H. Tashmatov, N. T. O'rmonov; Mas'ul muharrir S.S.G'ulomov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.  
– T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 320 b.  
Tashmatov Sh. H., O'rmonov N. T.

**BBK 65.04я73**


**ISBN 978-9943-13-032-6**

© «**IQTISOD-MOLIYA**», 2007  
© **A.A. Razzoqov, Sh. H. Tashmatov,**  
**N. T. O'rmonov, 2007**

## MUQADDIMA

«**Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q**», - degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A. Karimov. Har qanday tarixni o‘rganish, avvalo, hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, iqtisodiy ta‘limotlar tarixini o‘rganish katta nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarixi (xalq xo‘jaligi tarixi) va iqtisodiy ta‘limotlar tarixi iqtisodiyot fanining faktologiya va metodologiya asoslarini ta‘minlovchi va yaratuvchi asos sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli bu fanlar iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir<sup>1</sup>.

### Iqtisodiy fanlarning o‘zaro aloqadorligi



<sup>1</sup> Общая экономическая теория (Политэкономия). Учебник. М., «Промедиа», 1995. с. 30.

Sobiq sovetlar tuzumi davrida ko'pgina fanlar, shu jumladan, iqtisodiyot fani sinfiylik, partiyaviylik mafkurasi asosida o'rganildi, marksizm-leninizm g'oyalari birdan-bir to'g'ri ta'limot deb qabul qilindi va barcha masalalar yechilgan, tarixga, uzoq o'tmishga hech qanday hojat yo'q, degan umumiy kayfiyat yuzaga keldi. Sotsialistik va kommunistik jamiyat qurishda dasturulamal bo'lgan mafkuraga muqobil bo'lgan barcha fikrlar tanqidga uchradi; asosiy e'tibor markscha-lenincha iqtisodiy ta'limotni o'rganishga, kapitalizm, bozor munosabatlarining kelajagi yo'qligini zo'rma-zo'raki «isbotlash»ga qaratildi.

Ammo bu yo'l tarix sinovidan o'tmadi.

Hozirgi davr olimlari avvalgilardan ko'ra ko'proq biladilar, bu obyektiv jarayon, ammo biz ular tufayli ham ko'p narsalarni o'rgan-ganimizni inkor qilmasligimiz shart.

Mustaqil taraqqiyot yo'lga o'tgan o'zbekistonlik olimlar oldida ko'pgina fanlar kabi, iqtisodiyot fani borasida ham katta ishlarni amalga oshirish vazifasi turibdi. Iqtisodiyot insoniyat tarixi kabi qadimiydir. Iqtisodiyotga oid fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlar ham ko'p mingyillik tarixga ega. Lekin ularning asosiy qismi yozuv paydo bo'lganidan so'ng, yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan. Bu manbalar, ulardagi g'oyalar, avvalo, insoniyatning muqaddas mulkidir. Uni topish, o'rganish va kelajak uchun saqlash savobli bo'lsa, ulardagi nodir fikrlarni hayotga tatbiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot baynalmilal hodisa bo'lib, uning oldida turgan vazifalar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xil, ammo ular rivojlanish davomida turlicha natijalarga erishganlar. XVIII asr oxirida klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va David Rikardo obyektiv, ya'ni inson xohishiga bog'liq bo'lmagan, ammo ular tomonidan o'rganilishi mumkin bo'lgan qonunlar asosida amal qiluvchi xo'jalik tizimi to'g'risidagi ta'limot yaratdilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati bu qonunlarga xilof bo'lmay, aksincha, bu qonunlarga suyanishi kerak, ana shunda iqtisodiyot ravnaq topadi va aksincha. Demak, bu qonun va qonuniyatlarni bilish, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanish hayot talabi bo'lib bormoqda.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi deyarli to'rt ming yillik rivoji davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Ularning turli yo'nalishlari va maktablari mavjud.